

PUDRAT SHARTNOMASI

11«8»2022 yil.

258-13-181-OB/2022-son

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor J.Narimov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "DAVR LOYIHA"FA nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi A.Eshmuradov ikkinchi tomondan To'lqin OFYdagi tungi ko'cha yoritish tizimini joriy ta'mirlash ishlari uchun smeta hujjatlari tayyorlashga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Ta'riflar

1.1. Mazkur shartnomada tariflar qo'llaniladi:

"ijro hujjatlari": - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

"qurilish maydoni": Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

"vaqtinchalik ishlar": Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo'lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

"berkitilgan ishlar":- sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

shartnomani narxini bo'lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2.1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq To'lqin OFYdagi tungi ko'cha yoritish tizimini joriy ta'mirlash ishlari uchun smeta hujjatlari tayyorlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tender natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022 yil "03" avgustdagi "127501" son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda QQS bilan (29 500 000) so'mni tashkil etadi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymati va ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo'lganda;

ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

3.3. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga “_1_” ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50%ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- “_2_” ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish.

Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash;

qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash.

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan (qurilish ishlarining 50 %dan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofik ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 3 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddati

6.2. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab:

keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

6.3. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.4. Tender natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 30_kunni tashkil etadi.

6.5. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi bu 8 850 000 (sakkiz million sakkiz yuz ellik ming) so'm tashkil etadi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (3-ilova)

7.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvalariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 90% gacha doirasida amalga oshiriladi.

7.4. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilngandan keyin yoki mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (bir yil) tamom bo'lgandan keyin ishlar qiymatining 10% gacha miqdorida, amalga oshiriladi:

7.5. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

7.6. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

8.1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal kilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. Pudratchi ob'ektida ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.6. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

8.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

8.8. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.9. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.10. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.12. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.13. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.14. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

8.15. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasa javobgar hisoblanmaydi.

8.17. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 35 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

8.18. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

8.19. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikirini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarini qo'riqlash

9.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallaguncha va qurilish tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul kilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

9.2. Tiklangan bino va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar ob'ekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish

11.1. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ektni foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 2 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar

12.1. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

- loyiha hujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni;

ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 1 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolat muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

12.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

12.4. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

13.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,
- pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish ob'ekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

13.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

14.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning ___ foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi

14.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ishchi hujjatlariga muvofiq bo'lmasa u holda Buyurtmachi qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida undirish huquqiga ega.

14.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

15.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar va shartnomaning amal qilish muddati

16.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

16.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulki qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

16.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

16.8. Ushbu shartnoma G'aznachilik bo'limida ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab 31.12.2022-yilgacha amal qiladi.

XVI. Korrupsiyaga qarshi shartlashuv

16.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga qo'llangan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi korrupsiyaga qarshi bo'lgan tegishli shartlar va talablarini tushunish haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishni kafolatalaydi. Xaridor ushbu shartnomada amalda bo'lgan butun davr moboynda u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktor, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) sotuvchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, sotuvchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarning korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari

Buyurtmachi:


Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi
Bank: Markaziy bank Toshkent
H/R 401722860352047045204110006
MFO 00014
INN 204622562

Rahbar: J.Narimov
M.U. (imzo)

Pudratchi:

"DAVR LOYIHA" FA
Bank: ATB Agro bank Amudaryo filiali
H/R: 20208000909557549001
MFO: 00019
INN: 308274792

Rahbar: A. Eshmuradov
M.U. (imzo)



Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	JASUR NARIMOV MASHARIBOVICH
Imzolangan sana	11 avg 2022 16:58
Hujjat kodi	KJ3412563048
Hulosa kodi	OI8345023023

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARINING MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

№ KJ3412563048

1. Loyhaning turi: Shartnomasi

2. Loyhaning nomi: Pudrat Shartnomasi.

3. Loyhaning mazmuni: Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi “Buyurtmachi” va “DAVR LOYIHA”FA “Pudratchi” o’rtasida loyiha qiymati 29 500 000 so‘mni Amudaryo tumani To’lqin OFYdagi tungi ko’cha yoritish tizimini joriy ta’mirlash ishlari uchun smeta hujjatlari tayyorlash maqsadida 2022-yil 11-avgust kuni tuzilgan “Pudrat shartnomasi” to’g’risida.

4.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tomonidan 2022-yil 11-avgust kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi № 670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga mos ravishda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me’yorlariga javob beradi. Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqoralik Kodeksining Pudrat shartnomasi munosabatlarini tartibga soluvchi 37-bobi jumladan, 631,632,636,638-moddalari bilan tartibga solinadi.

2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me’yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog‘liq shartlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentyabridagi “Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 395-sonli qaror me’yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to‘liq mos keladi.

3. Ushbu shartnoma loyihasini ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubtan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-sonli Farmoniga amal

qilinganligi aniqlandi. Ya'ni ushbu farmonda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog'liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar belgilanishi ta'kidlangan.


4. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruv organining qonuniy yoki boshqa ko'rsatmalari mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Amudaryo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 11-avgustda ishlab chiqilgan "Pudrat" shartnomasining qabul qilinishi **muvofigligi haqida.**

Amudaryo tumani adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti 3-darajali yurist:



A.Z.Tojiboyev
11.08.2022-yil